

Chet Tillarini O'Qitishda Gapirish Ko'nikmasini Rivojlantirish

Z. Qo'chqorova ¹, M. Mo'minova ²

Annotatsiya: ushbu maqolada til o'rganuvchilar orasida gapirish ko'nikmasini oshirish, muloqot davomida duch kelinadigan psixologik muammolar, so'zlarni yod olishda qiziqarli va oson usullar, ingliz tili va o'zbek tilidagi so'zlarning qiyoslanishi, solishtirilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: gapirish, paradigmatica, sintagmatika, fonetik o'zgarish, tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashinishi, kommunikativ kompetensiya.

Hozirgi taraqqiyot davrida chet tiliga bo'lgan e'tibor kundan kunga oshib bormoqda, ilgari faqatgina Oliy ta'lim talabalari orasida yangi bir xorijiy tilni o'rganish keng tarqalgan bo'lsa, bugungi kunda bu holatni maktab o'quvchilarida ham ko'rish odatiy holatga aylanmoqda. Misol tariqasida, jahon tili deya e'tirof etilgan Ingliz tili mamlakatimizning ta'lim dasturlarida allaqachon o'z o'rnini egallagan. Biror bir chet tili o'rganilgan paytda asosan gapirishga e'tibor qaratish lozim. Gapirish – nutq faoliyatining mahsuldor turi bolib, u orqali og'zaki muloqot amalga oshiriladi, nutqning mazmuni – fikrning og'zaki shaklda ifodalanishi. Gapirish ko'nikmasini rivojlantirish esa talaffuz, grammatika va so'z boyligidan iboratdir. Shuningdek, til o'rganuvchi o'zining ona tili singari birdaniga ravon tekis muloqot qila olmaydi. Shuning uchun chet tilini o'rgatishda o'z ona tili bilan o'rganilayotgan chet tilini qiyoslash va solishtirish, motivatsiya berish yo'llariga e'tibor berish lozim.

Til sistemasi tarkibidagi moddiy – kommunikativ birliklar muayyan qoidalar asosida zaruriy aloqaga, munosabatga kirishadilar, muayyan guruhlarni tuzadilar, nutq birliklarini-hodisalarini yaratadilar. Bu aloqa, munosabatlar mutlaqo mantiqiy, obyektiv, ijtimoiy bo'lib, ikki yo'nalishda – paradigmatic va sintagmatic munosabatlarni hosil qiladi [2]. Gapirishni o'rganishda sintagmatic aloqalarning ahamiyati katta bo'lib, bunda so'zning turli birikmalarda qo'llanilishi nazarda tutiladi. So'zlovchi xotirasida tayyor turgan so'zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda, ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi. Masalan, yangi chet tiliga oid lug'at yod olinayotganda, ba'zi so'zlarning talaffuzi o'z tilidagi so'zlariga o'xshashi mumkin. Misol tariqasida, O'zbek va Ingliz tillarini olish mumkin. Ingliz tilidagi so'zlarning garchi ma'nosi har xil bo'lsa ham, talaffuzi o'zbek tilidagi so'zlarga o'xshab ketadiganlari bor: *Cat* [kæt] (mushuk) – *Ket* (ma'lum joydan uzoqlashish),

Beat [bi:t] (urmoq) – *Bit* (qon so'ruvchi hasharotlar turkumi),

Boy [bɔɪ] (o'g'il bola) – *bo'y* (kishi yoki narsaning tik yo'nalishdagi ko'lami), *feel* [fi:l] (his qimoq) – *fil* (quruqlikda yashovchi eng katta hayvon),

man [mæn] (erkak) – *men* (kishilik olmoshi).

Bundan tashqari, ingliz tilidagi ba'zi so'zlarni o'zbek tilida fonetik o'zgarishlarga (tovush ortishi, tovush tushishi, tovush almashinishi) solishtirib o'rgatish va yodlatish mumkin. Masalan, og'zaki nutqda ma'lum bir so'zlarda tovush tushish hodisasi ikki tilda ham uchraydi. O'zbek tilidagi so'zlar og'zaki nutqda ham, yozuvda ham tovush tushish hodisasiga uchraydi, ingliz tilida esa faqatgina talaffuzda. O'zbek tilida *bilan* [blan], *gilam* [glam], *og'iz* [og'z], *saodat* [sodat] kabi so'zlarni; ingliz tilida *chocolate-* ['tʃɒk.lət], *comma-* ['kɒmə], *fruit* [fru:t], *Every-* ['ev.ri], *suit* [su:t] kabi so'zlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

¹ Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

² Farg'ona davlat universiteti talabasi



Tovush ortishi hodisasi *rain* [rem], *coin* [kɔɪn], *boil* [bɔɪl], *debate* [dɪ'beɪt], *drive* /dɪ'raɪv/ kabi ingliz so'zlarida, *oila* [oyla], *tabiat* [tabiyat], *doim* [doyim] kabi o'zbekcha so'zlarda ko'rinadi, har ikkala tilda talaffuz qilinayotganda ham "y" tovushi orttiriladi.

So'zlash davomida duch keladigan asosiy qiyinchiliklardan yana biri bu motivatsion muammodir. O'qituvchi dars davomida til o'rganuvchilardan nutqiy xato qilmasdan gapirishni talab qilmasligi lozim, aks holda ular mashg'ulot davomida gapirishda bir-biridan uyalishlari, xato qilish, tanqidlardan qo'rqishlari, yangi chet tili so'zlarini yodlay olmasliklari mumkin. Bu esa talaffuz qila olmaslik muammosini yuzaga chiqaradi va gapirish ko'nikmasi rivojlanmaydi. Mazkur muammolarni o'qituvchi dars davomida aniqlab, yechim topishi lozim. Sinfda so'zlash uchun doimo vaqt va makon yaratilishi lozim. Til o'rganuvchilar suhbat va munozaralarga odatlanib, ularni tabiiy jarayon sifatida qabul qilishlari kerak. Muloqot davomida ularga ijobiy fikr bildirilib, rag'batlantirilishi til o'rganuvchilarning qiziqishini oshiradi va yana-da qattiqroq mehnat qilishga kuch beradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rgatishda nutqiy kamchiliklarni asta-sekin yo'qotish, turli fonetik o'zgarishlarga e'tiborli bo'lish va, albatta, motivatsiya berish til o'rganuvchilarning qiziqishi ortishiga sababchi bo'ladi.

References

1. Merriam-Webster. (n.d.). Word. In Merriam-Webster.com dictionary. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/word>
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/til-sistemasi-paradigmatika-va-sintagmatika>
3. Muminova Mohinur Masudjon kizi Types of phonetic english accent in uzbek education. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY. 2023.
4. Muminova Mohinur Masudjon kizi Teaching english phonetics language in education. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2023
5. Rasulova A. The studing barrier connection in the world linguistics.. Thematic journal of Education, 2022
6. R.A.Muydinovna Different Levels Of Relationship (Situation) Barrierlessness. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2023

